

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'SPIRINLARNI KASBGA
YO'NALTIRISH VA QULAYLIKLER YARATISH.

To'layeva Dilshoda Zafar qizi

Qarshi shahar Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti Axborot texnologiyalari va pedagogika fakulteti Defekta logiya yo'naliishi 2-kurs talabasi
dilshodatulaeva4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'spirinlarni kasbga yo'naltirish va qulayliklar yaratish haqida bo'lib ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga bo'lgan tushunchalarini shakllantirish va ularni jamiyatda ijtimoiy o'z o'rinalarini topishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ko'zi ojiz bolalar, kasb-hunar, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, individual, optimizm, adaptatsiya.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda yashar ekanmiz har-bir insondan ma'lum bir kasbni egallash talab etiladi. Ammo jamyatimizda sog'lom insonlar qatori nogironligi bor bo'lgan insonlar xam hayot kechirishmoqda. Bu borada davlatimiz hamda yurt boshimiz tomonidan qator dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib yoshlarmizdan faqatgina intilish va aniq bir maqsad yo'lida bilim va kasb hunar ko'nikmalarini mukammal tarzda egallashlari kutilmoqda albatta.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalarini, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilar uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishini talab qiladi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.¹²⁰

Ko'zi ojiz o'quvchilarning kelajakdag'i hayotga moslashuvi va o'z o'rnini topib, to'liq ish bilan ta'minlanishidagi muammolar doimiy ravishda barchamizni birdek tashvishga solib keladi. Bu muammo faqat birgina bizda emas butun dunyo mamlakatlarida kuzatiladi. Ushbu muammoli holatning yechimi maktabgacha ta'limdan boshlab korreksion rivojlantiruvchi va moslashib harakatlanish, o'z o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, qo'l motorikasini rivojlantirish atrof muhitda o'zini idora qilish va boshqa hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga erishishdan boshlanishi zarur. Maktab ta'limi jarayonida barcha fanlarni o'qitish bilan bir qatorda, boshlang'ich sinflardan boshlab kasbga yo'naltirish, imkoniyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda kasb tanlashishiga erishish zarur. Yuqori sinflarda "Kasb-hunar ta'limi" jarayonida

¹²⁰ F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva, Sh.T.Shermuhamedova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullaev, Z.X.Xusnuddinova. MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA Chireq - 2022 23-bet

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o'quvchilar kasblar bo'yicha umumiy ma'lumot olish bilan bir qatorda qiziqqan va o'zi uchun tanlagan kasbi haqida chuqurroq ma'lumot olishi uchun sharoit yaratilgan bo'lmog'i zarur. Bolalarni maktabgacha va kichik mакtab yoshidan boshlab kasbhunarga yo'naltirish ishlarini boshlash talab qilinadi. Bu ishlar ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni kelajakdagи hayotlarida ish bilan ta'minlanishi uchun juda muhim hisoblanadi. Shu orqali ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, ota-onaga qaramlikdan chiqishi va eng asosiysi nuqsonidan uyalmasligi hamda ozgina bo'lsada nuqsonini esdan chiqarishiga olib kelish mumkin.

Har bir o'quvchi o'z oldiga maqsad qilib olib turli xil kasblardan birini tanlashi kerak yoki o'qituvchi hamda jamoa vakillari ma'lum bir kasb tanlashiga ko'maklashishi talab qilinadi. Shuningdek, har bir o'quvchi o'zi haqida, o'zining qobiliyatlari va potensiallari to'g'risida aniq tushunchalarni bilishi, zarur hollarda chetdan rivojlantirilishi kerak.¹²¹

Xulosa qilib aytganimizda har bir pedagog o'z o'quvchilariga to'g'ri ta'lim-tarbiya bersa hamda ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'spirinlarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini, individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasbga yo'naltirsa, Davlatimiz tomonidan ular uchun turli quayliklar yaratilsa turli xil muammolarni oldini olgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva, Sh.T.Shermuxamedova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullaev, Z.X.Xusnuddinova. MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA Chirchiq – 2022

2. INKLYUZIV TA'LIMDA TIFLOPEDAGOG O'QITUVCHINING O'RNI VA AHAMIYATI (Pedagog xodimlar uchun qo'llanma) Toshkent – 2021

¹²¹ INKLYUZIV TA'LIMDA TIFLOPEDAGOG O'QITUVCHINING O'RNI VA AHAMIYATI (Pedagog xodimlar uchun qo'llanma) Toshkent – 2021 4- bet.